



Onarxol AMANOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: o.amanova@dtpi.uz

SamDU professori I.Mirzayev taqrizi asosida

INGLIZ XALQ ERTAKLARI TIPOLOGIYASI VA TARJIMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyoning eng qadimiy va boy og'zaki adabiyot turlaridan biri bo'lgan ingliz xalq ertaklari va madaniyatning aks etishi muhim mavzu sifatida yoritiladi. Tipologiya tillarning qurilishidagi umumiy, universal holatlarni tekshiradi. Bunda barcha tillar, ularning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar o'rganilaveradi. Tipologiya esa o'rganilayotgan obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni ochib berishga, ularni aynan o'xshatish, tenglashtirish yo'llarini topishga asoslanadi. Ikki yoki undan ortiq har xil tizimdagi tillarning ayrim xususiyatlarini qiyosiy tipologiya o'rganadi. Maqola til o'qituvchilari o'rganayotganlar uchun ertak ustida ishlash jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, tipologiya, madaniyat, axloqiy, sarguzasht, ertaklar, qahramonlar.

ТИПОЛОГИЯ И ПЕРЕВОД АНГЛИЙСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация

В данной статье отражены английские народные сказки и культура, которые являются одним из самых древних и богатых видов устной литературы в мире. Типология изучает общие, универсальные закономерности в структуре языков. В этом исследуются все языки, независимо от того, являются ли они родственными или нет. Типология основана на выявлении сходств и различий между изучаемыми объектами, поиске способов их сравнения и отождествления. Статья поможет преподавателям языков глубже понять процессы работы над сказками для учащихся.

Ключевые слова: Английский язык, типология, культура, мораль, герои, приключения, сказки, мотивация.

TIPOLOGY AND TRANSLATION OF ENGLISH FOLK TALES

Annotation

This article reflects on English folk tales and culture, which are among the oldest and richest forms of oral literature in the world. Typology examines general, universal patterns in the structure of languages. In this, all languages are studied, regardless of whether they are related or not. The typology is based on identifying similarities and differences between the studied objects, searching for ways to compare and equate them.

The article will help language teachers gain a deeper understanding of the processes of working on fairy tales for those who are learning.

Key words: English language, typology, culture, moral, adventure, fairy tales, heroes, motivation.

Kirish. Bugungi kunda inson hayotida tilni o'rganishda ertaklarning tipologiyasi turli hikoya janrlari va mavzularni qamrab oladi. Tipologik tadqiqotlar til tizimining alohida, ayrim kichik tizimlari asosida ham olib boriladi, shu tufayli fonologik, morfologik, sintaktik va semantik tipologiya farqlanadi. Ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan har xil tizimdagi tillarning ayrim xususiyatlarini qiyosiy tipologiya, o'rganadi. Aniqlanadigan tipologik belgilar ma'lum bir kichik tizimning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, lekin til qurilishida ular turli nisbatlarda birikadi, shuning uchun mazkur belgilardan biri asosiy, yetakchi hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ta'lim sohasiga qaratilgan e'tibor davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning ushbu yo'nalishda amalga oshirayotgan islohotlarining asosiy bo'g'ini va vazifasiga aylandi. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" [1].

Bu esa o'z navbatida turli sohalarida tadqiqotlar olib borilishining kengayishiga zamin yaratdi.

Tahlil va natija. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma - bosqich joriy etish. Dunyoning hamma qit'alarida, barcha xalqlarda ertaklar va uning xalq orasida tashib yurgan ertakchilari uning nazariyachilari ertakshunoslari bor. Ertak uning juda qadimdan borligi xalq og'zaki ijodining ilk adabiy janrlaridan biri ekanligi ma'lum. Ertak so'zining lug'aviy ma'nosi "aytish", "aytmoq", "hikoya qilmoq" ma'nosini bildiradi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk" asarida turkiy xalqlarda uning "etuk" atamasi bilan yuritilganligini qayd

etgan. Unga ko'ra etuk "biror voqeani og'zaki hikoya qilish"ni anglatadi [2].

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday yoshdagi kishilarga tez yetib boradi. Ertaklar azaldan xalqni, yosh avlodni insonparvarlik, rostgo'ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Axloqiy ertaklar (Moral Tales) zamirida pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. Ertaklarni hikoya qiluvchi, tushuntiruvchi, muhokama qiluvchi, ma'lumot beruvchi va ko'ndiruvchi) ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilingan. leksik usulda bog'lanishni ta'minlash imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan.

Ertaklarda tasvirlanadigan voqealar ikki ziddiyat asosida ochib beriladi: yaxshilik va yomonlik, baxllik va saxiylik, rostgo'ylik va yolg'ochilik, ezgulik va yovuzlik, halollik kabi o'ziga xos bo'lgan an'analar o'z aksini topadi. Turli xalq ertaklari mazmun jihatidan shunday bog'lanadiki, ular insonni ezgulikka, yurtga fidoyilik, vafodorlik, odamgarchilik, himmat va saxovatga intilishga chorlaydi xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanzugacha ma'naviy zavq berib kelyapti. Hayotdan olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otadigan, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlardir.

Misol: The Boy Who Cried Wolf is a classic fable attributed to Aesop. It teaches the value of honesty and the consequences of lying. Here's a brief summary of the story: The Boy Who Cried Wolf A shepherd boy was tasked with watching over a flock of sheep near a village. To amuse himself, he decided to trick the villagers. He ran into the village shouting, "Wolf! Wolf! A wolf is attacking the sheep!".

The villagers, alarmed, dropped their work and rushed to help him. When they arrived, they found no wolf. The boy laughed at them for believing his lie. A few days later, he repeated the trick. Again, the villagers rushed to help, only to find no wolf. They were angry but returned to their tasks.

One day, a wolf actually came and attacked the flock. Terrified, the boy cried out for help, "Wolf! Wolf!" But this time, the villagers, thinking it was another lie, ignored his cries. The wolf attacked the sheep, and the boy learnt a harsh lesson.

"Yolg'onchi cho'pon" ertagi ko'pchilikka tanish bo'lib, halollik va rostgo'ylikning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Qishloq aholisi qo'lida belkurak, tayoq bilan yugurib keldi, lekin hech qanday bo'ri yo'qligini ko'rib, norozi bo'lib ketishdi. Cho'pon bola bu hazilni bir necha bor takrorladi. Har safar odamlar yordamga shoshilardi, lekin bo'ri yo'qligini ko'rib g'azablanishardi. Bir kuni esa haqiqiy bo'ri paydo bo'ldi va cho'pon bola yordamga chaqira boshladi.

Bo'ri! Bu safar haqiqiy bo'ri keldi Ammo qishloq ahli bu safar unga ishonmadi. Ularning ko'ngliga shubha tushgan edi. Shunday qilib, bo'ri qo'ylarni tinchgina olib ketdi, cho'pon bola esa qilgan ishidan afsuslandi [3].

Qissadan hissa: Yolg'on gapirish o'ziga zarar keltiradi. Agar bir marta yolg'on gapirilsa, keyinchalik haqiqatga ham ishonmay qo'yishadi. Halol va rostgo'y bo'lish eng yorqin yo'ldir.

Xuddi shunday mavzu g'oyasi asosida yaratilgan hikmatlar ertaklar o'zbek adabiyotida folklorida talaygina. Alisher Navoiy o'zining asarlaridan birida shunday yozadi

Bor emish avval zamonda bir kishi
Doimo yolg'onchilik qilgan ishi
Bir kuni uyini o't olgan emish
Qutqaring deb dod voy solgan emish.
So'ziga ishonmabdi hech bir odam
Uyi kul bo'lib, yonib ketdi shu dam
Unga aytmiş bir kishi aqli raso
Kimki yolg'on so'zlasa, aldar esa.
Har nechukkim rost erur oning so'zi
El aro yolg'on erur oning so'zi
Garchi yordam bermadi senga el
Boshqadan emas o'zingdan o'pka qil

Qissadan hissa: Yolg'on gapirish o'ziga zarar keltiradi. Agar bir marta yolg'on gapirilsa, keyinchalik haqiqatga ham ishonmay qo'yishadi.

O'zbek xalq ertaklaridan biri bo'lgan "Zumrad va Qimmat" ertagi. Bu ertakni bilmaydigan kishi bo'masa kerak "Zumrad va Qimmat" - xalq og'zaki ijodiga mansub o'zbek xalq ertagidir. Bu ertak muallifi noma'lum bo'lib, asrlar davomida xalq orasida og'izdan-og'izga o'tib kelgan. An'anaviy xalq ertaklari kabi, "Zumrad va Qimmat" ham yaxshilik va yomonlik, mehribonlik va ochko'zlik kabi mavzularni yoritadi [3].

Bunga quyidagi "Kuloyim" ertagini qiyoslash mumkin "Kuloyim" inglizcha "Cinderella" ertagidagi tug'ilgan qahramon Gretsiyada Rhodophis ismli chiroyli qiz o'gay onasi va o'gay opa-singillari tomonidan qattiq mehnat qilishga majbur bo'ladi. Uning hayoti Fairy Godmother (Sehrlı Onaxon) yoki shunga o'xshash sehrlı yordamchining aralashuvi tufayli o'zgaradi. U malika kabi ko'rinishda shahzodaning baliga boradi va shahzodaning e'tiborini qozonadi.

G'arbiy Yevropa ertagi bo'lib, Charlles Perault, aka-uka Grimmlar Giambattista Basile nashrlari bilan mashhur. Ertakning eng qadimgi talqini Misr papirslaridan topilgan. Ertaklar "papyrus" va "papirologiya" atamallari yozish uchun ishlatiladigan o'simlik o'sadigan joy va juda ko'p papyrus matnlari topilgan hudud sifatida Misr bilan chambarchas bog'langan. XVI-asrda Uyg'onish davridagi Yevropada shaxsiy kolleksiyalarda yunon tilidagi papiruslar bo'lgan, ammo ularning kelib chiqishi va ahamiyati zamondoshlariga ma'lum emas edi. Biroq yarim kechada sehr tugashi kerakligi sababli, uyga shoshilarkan, poyabzalining bir juftini tushirib yuboradi. Keyin shahzoda poyabzal orqali uni izlab topadi va ular baxtli hayot kechiradila.

Cinderella (Ashputtel nomi bilan ham tanilgan) kambag'al, lekin chiroyli va mehribon qiz bo'lib, uning o'gay onasi va opa-singillari unga yomon muomala qiladi. U kechki balga boradi, sehr yordami bilan shahzoda bilan uchrashadi. Poyabzal syujetning markaziy elementiga aylanadi, chunki Cinderella faqat o'sha poyabzal orqali taniladi va shahzoda uni topadi. Bu Cinderella ertagining Germaniya xalq talqini bo'lib, fransuz yozuvchisi Sharl Perro versiyasidan bir qancha farqlarga ega. Aka-uka Grimmlar versiyasida syujet ko'proq qahramonning mehnati, sabr-toqati va taqdirining irodasi haqida hikoya qiladi. Unda sehrlı qushlar Cinderella (Ashputtel)ga yordam beradi va uning o'gay opa-singillari yakunda qattiq jazolanadi, bu qism boshqa talqinlardan farq qiladi. Grimmlar ushbu ertakni Germaniya xalq og'zaki ijodidan ilhomlanib yozgan va o'z kitoblari orqali Germaniya folklorining jahon adabiyotida tanilishiga katta hissa qo'shgan. Kinder- und Hausmärchen to'plami o'sha davrdan beri ko'plab qayta nashr etilgan va tahrir qilingan.

Ertak yozma manbalarga turli vaqtlarda kiritilgan bo'lsa-da, uning og'zaki shakli qadimdan mavjud bo'lgan. O'zbek adabiyotshunosligida bu kabi xalq ertaklari turli to'plamlarga kiritilgan va chop etilgan.

A cruel lion lived in the forest. One animal went to the lion so that the lion could eat it. Finally, it was the rabbit's turn to go to the lion. The rabbit went very slowly that day. The lion angrily asked the rabbit, "Why are you late?" "L was hiding from another lion in the forest. That lion said he was the king, so I was afraid".

O'rmonda zolim bir sher yashagan ekan. Sher yeyishi uchun har kuni hayvonlardan biri sherning yoniga kela boshlabdi. Nihoyat, sherning oldiga boorish uchun quyonning navbati yetib. O'sha kuni quyon shoshilmay imillab boribdi. Sher jahl bilan quyondan so'rabdi: "Nega kech qolding?" "O'rmondagi boshqa sherdan yashirinayotgan edim. U o'rmon qiroli ekanini aytibdi. Shu sabab men qo'rqdim" – debdi quyon [4].

Ohang: Inglizcha versiyalar ko'proq sehr va romantikaga e'tibor qaratadi, o'zbekcha ertaklar esa odatda ijtimoiy va axloqiy xulosalar chiqarishga intiladi.

Syujet tafsilotlari: O'zbek talqinlarida Fairy Godmother kabi sehrlı elementlar kamroq uchraydi va qahramon o'z halolligi bilan baxtga erishadi. Ingliz xalq ertaklariga Qahramonlarning jasoratlari, qiyinchiliklarni yengishlari va katta maqsadlarga erishishlari haqida hikoya qiluvchi "Robin Hood" afsonasi. Ingliz taxtini firibgarlar egallab olgan bo'ladi. Robinga teng bo'lmagan kurashda omon qolishga yordam beradi.

Robin Gud ("Robin Hood") afsonasida asosan kambag'allarga yordam berish uchun boylardan o'g'irlik qiluvchi adolatparvar qahramon haqida hikoya qiladi. Bu xalq ertagi o'rta asrlarda Angliyada shakllangan.

Bolalar uchun mo'ljallangan o'zbekcha adabiyotlarda uchratishingiz mumkin. Robin Gud haqidagi afsonasida asosiy voqealar quyidagicha rivojlanadi: Robin Gud Shervud o'rmonida yashovchi qaroqchi sifatida tasvirlanadi. VI-asr boshlarida Eron shohi Doro I qo'shini Turon hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi va notig'i Poliyen asarida ilk marta oddiy otboqar Shiroq jasorati tilga olingan. Rejaga ko'ra, Shiroq o'z qabilasi manfaatini himoya qilib, harbiy hiyla ishlatgan va yolg'iz o'zi Doro I lashkariga qarshi turgan [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalq ertaklarining tahlili ularning badiiy, madaniy va ma'naviy jihatlarini chuqur o'rganishni, tarjima jarayonida esa badiiy mahorat va lingvistik bilimlarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Bu boradagi izlanishlar milliy va umuminsoniy madaniyatlar integratsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Turli xalq ertaklari o'zining boy madaniy merosi va xalq og'zaki ijodining yorqin namunalari sifatida dunyo adabiyotida muhim o'rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- Farmoni.

2. "Yolg'onchi cho'pon" Tarjimon: Dilmurod Quronov tomonidan tarjima qilingan va kitob 2020-yilda nashir qilingan 48-bet. Akadem nashr.
3. "Zumrad va Qimmat" ertagi 1990-yil "O'zbekiston" nashriyotida qayta nashr qilingan.
4. Entertaining Stories (2-kitob) 104-bet "Kitobdornashr" 2023-yil.
5. Qiziqarli ertaklar (2-kitob) 108-bet "Kitobdornashr" 2023-yil.
6. Poliyen "Harbiy xiyalalar" ("Strategmalar") asari O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
7. Alisher Navoiyning "Doimo yolg'onchilik qilgan ishi" ertagi.
8. Vafo Fayzulloh 2014 yil "Ingliz xalq ertaklari" asarlari.
9. Sharl Perro (Charles Perrault) Cinderella, or the Little Glass Slipper ertagi, ingliz tilida 1697-yilda yozilgan.